

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI: O'QITISH MAQSADI VA VAZIFALARI

Gulandom Radjabova

Buxoro viloyati Romitan tumani 24-umumta'lim maktabi

Oliy toifali informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Gulandomradjabova4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10852453>

ANNOTATSIYA

XXI- asr - axborot-kommunikatsion texnologiyalari asridir. Zamonaviy jamiyatda bolalar boshlang'ich maktab yoshdanoq axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida ma'lum kundalik vazifalarni hal qilishning qulay vositasi sifatida foydalanishni boshlaydilar. Shuning uchun bolalarga boshlang'ich maktab yoshidanoq qalamni to'g'ri ushlab yozishni, yozishda partaga to'g'ri o'tirish qoidalarini o'rgatganimizdek, kompyuter va turli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatishimiz lozim. Maqolada boshlang'ich ta'limda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning maqsad va vazifalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Informatika va axborot texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2022- yil 10- oktabrdagi "zamonaviy maktab darslikarini tajriba-sinovdan o'tkazish hamda maktab ta'limi sifatini oshirish to'g'risida"gi 14-sonli bayoni, Prezident Administratsiyasining 2023 -yil 27-apreldagi 08-740-sonli xatiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023- yil 15 -maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 115 -sonli buyrug'iga asosan "Informatika va axborot texnologiyalari" fani 1-sinf dan boshlab o'qitilishi belgilandi. Mazkur bayon ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-2024 o'quv yilidan 1-sinfda "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qitilishi yo'lga qo'yildi. [1]

Zamonaviy jamiyatni haqli ravishda axborotlashtirilgan deb atash mumkin, chunki uning o'ziga xos xususiyati shundaki, biz hamma joyda axborot bilan o'ralganmiz.

Axborot asri va zamonaviy jamiyat bolalardan hatto boshlang'ich maktabda ham olishlari mumkin bo'lgan katta miqdordagi ma'lumotlarni olish, sharhlash va baholash qobiliyati kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Zamonaviy jamiyatni haqli ravishda axborotlashtirilgan deb atash mumkin, chunki uning o'ziga xos xususiyati shundaki, biz hamma joyda axborot bilan o'ralganmiz. Ishlab chiqarish sohasida u asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Shuning uchun axborotlarni qayta ishlash, saqlash, foydalanish va uzatish doimiy ravishda amalga oshiriladi. Bularning barchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'limda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishdan maqsad-o'sib kelayotgan yosh avlodni zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan olgan bilimlarini hayotga tatbiq etishga o'rgatishdan iborat. [2]

Bolalar boshlang'ich maktab yoshdanoq axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida ma'lum kundalik vazifalarni hal qilishning qulay vositasi sifatida foydalanishni boshlaydilar. Shuning uchun bolalarga boshlang'ich maktab yoshidanoq qalamni to'g'ri ushlab yozishni,

yoʻzishda partaga toʻgʻri oʻtirish qoidalarini oʻrgatganimizdek, kompyuter va turli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan toʻgʻri munosabatda boʻlishni oʻrgatishimiz lozim. Boshlangʻich sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fanini oʻqitishning maqsad va vazifalari namalardan iborat?

Boshlangʻich sinflarda “informatika va axborot texnologiyalari” fanini oʻqitish metodikasi boʻyicha ilmiy tadqiqotlqir olib borgan rus olimlaridan A.V. Goryachevning fikriga koʻra:

Taʼlim samaradorligini taʼminlovchi omillardan biri uzluksizlikdir. Bunday holda , uzluksizlik deganda taʼlimning butun kursi davomida bir-biriga aylanadigan va har bir ketma-ket vaqt oraligʻida oʻquvchilarning doimiy, obʻyektiv va subʻyektiv rivojlanishini taʼminlaydigan izchil maqsadlarning mavjudligi tushunilishi kerak. Davomiylik deganda taʼlimning turli bosqichlari yoki shakllari chegaralaridagi uzluksizlik tushuniladi.

Boshlangʻich sinflarda informatika oʻqitishning maqsad va vazifalarini oʻzaro bogʻlab, informatika fanini oʻrganishning ikki jihatini: texnologik va umumiy taʼlimni ajratish mumkin. Birinchi holda, informatika taʼlim salohiyatini rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Uning vazifasi maktab oʻquvchilarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish koʻnikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Ikkinchi holda, informatika mantiqiy tafakkurni, tahlil qilish,subʻyektlar va munosabatlarni aniqlash, harakat rejalarini tavsiflash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi.

Kichik maktab oʻquvchilariga informatika fanini oʻqitish vazifalarini ikki qismga boʻlish mumkin.

a) umumiy taʼlim vazifalari:

- oʻquv motivatsiyasini shakllantirish;
- nutqni rivojlantirish;
- tengdoshlar va kattalar bilan toʻgʻri munosabatlar oʻrnatish qobiliyatini rivojlantirish;
- umumiy taʼlim koʻnikmalarini shakllantirish;
- oʻquv jarayoniga qiziqishni oshirish va boshqalar.

b)uch guruhga boʻlinadigan aniq vazifalar.

1-guruh

Boʻljak treningga tayyorgarlik koʻrish va maʼlumotni yaratish bilan bogʻliq vazifalar. Quyidagi yondashuvlardan foydalangan holda maktab oʻquvchilarida barqaror muammolarni hal qilish koʻnikmalarini rivojlantirish:

- masallarni yechishda formal mantiqdan foydalanish
- mantiqiy amallar yordamida xulosalar chiqarish. "agar-keyin", "va", "yoki", "yoʻq"-va ularning kombinatsiyalari;
- masalalarni yechishda algoritmik yondashuv;
- maqsadga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini rejalashtirish qobiliyati;
- tizimli yondashuv;

Murakkab obʻyektlar va hodisalarni oddiyroq komponentlar toʻplami shaklida koʻrib chiqish, ularning har biri obʻyektning bir butun sifatida ishlashi uchun oʻziga xos rol oʻynaydi;

- obʻyektga yoʻnaltirilgan yondashuv, yaʼni harakatlarni emas, balki obʻyektlarni birinchi oʻringa qoʻyish, alohida obʻyektlarni umumiy nomga ega boʻlgan guruhga birlashtirish, obʻyektlarning umumiy xususiyatlarini ajratib koʻrsatish,obʻyektni nimadan iboratligi,nima qilishi va qanday ishlashi prinsipiga koʻra tasvirlash qobiliyati.(obʻyekt bilan nima qilish mumkinligi)

2-guruh

Informatika bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bilim sohalari bo'yicha o'z dunyoqarashini lengaytirish, grafiklar, kombinator masalalari va mantiqiy o'yinlar bilan tanishish.

3-guruh

O'quvchilarning nostandart muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.[3]

Boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalari darslarida maktab o'quvchilarida dunyoning axborot manzarasi, axborot va axborot jarayonlari haqidagi umumiy g'oyalarni voqelik elementlari sifatida shakllantirish; boshlang'ich g'oyalarni shakllantirish darajasida informatika tushunchalarining asosiy tizimi bilan tanishish; kompyuter yordamida matnlar, chizmalar, har xil turdagi diagrammalar, grafiklar, axborot ob'yektlari va modellari ni yaratish va o'zgartirish bo'yicha tajriba orttirish; eng oddiy axborot modellarini yaratish va ulardan o'quv va amaliy muammolarni hal qilishda, shu jumladan boshqa maktab fanlarini o'rganishda foydalanish qobiliyatini rivojlantirish; kompyuterdan foydalangan holda matn va chizmalar yaratish, elektron to'plamlardan foydalanish va kompyuterdan test sinovlarida foydalanish, o'quv o'yinlari va estafeta musobaqalarini tashkil etish, elektron ma'lumotnomalardan ma'lumot izlash kabi fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni olish; umumta'limning keying bosqichlarida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini axborot muammolarini hal qilishga tayyorlashni ta'minlash; axborot bilan ishlashning umumiy ta'lim va umumiy madaniy ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, shaxsning axborot madaniyatining muhim elementlaridan biri sifatida tez o'zgaruvchan axborot muhitiga o'quvchining moslashish qobiliyatini tarbiyalash muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitish o'quvchilarni o'quv faoliyatida axborot manbalaridan mustaqil foydalanishga tayyorlaydi, kompyuterning elementar ko'nikmalarini shakllantiradi, ularni aloqa vositalaridan foydalangan holda axborot bilan ishlashga tayyorlaydi. O'quvchilarning axborot-kommunikatsion texnologiyalari sohasidagi tushunchalari va dunyoqarashini kengaytiradi. O'quvchilarning informatika kursida boshlang'ich sinflarda bajaradigan amaliy topshiriqlari va loyihalari ularda axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o'quv faoliyatida tajriba orttirish va boshqa fanlardan shu kabi topshiriqlarni bajarishda qo'llash imkonini berishi muhim.

Boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning asosiy maqsadlari sifatida;

- axborotning xossalari, u bilan ishlash usullari, kompyuterdan foydalanish haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish;
- informatika fanini butun o'rta maktabda uzluksiz o'rganishni ta'minlash
- mantiqiy va algoritmik fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish;
- keyingi o'quv faoliyatida kompyuterdan foydalanishga tayyorlash.
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- dunyoning axborot oqimlariga harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o'zlashtirish: axborotni izlash, tahlil qilish, o'zgartirish, tuzatish, saqlash, o'quv faoliyatida va kundalik hayotda foydalanish,
- boshlang'ich kompyuter savodxonligi va axborot madaniyati elementlarini shakllantirish;

-mavjud texnik vositalardan (telefon, magnitofon, kompyuter, televizor va boshqalar) foydalangan holda ma'lumot almashish, muloqot qilish imkonini beradigan ko'nikmalarini rivojlantirish kabi maqsadlarni belgilash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish vazifalari sifatida:

-o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; 'axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o'rgatib boorish orqali ularda umuminsoniy qadriyatlarga rioya etishni rivojlantirishga qaratilgan va -ta'lim-tarbiyaning keying bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

-o'quv va amaliy muammolarni hal qilish uchun kompyuter texnikasi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha dastlabki ko'nikmalar shakllantirish.

-informatika bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bilim sohalari bo'yicha o'z dunyoqarashini kengaytirish, grafiklar, kombinator masalalari va mantiqiy o'yinlar bilan tanishish.

-o'quvchilarning nostandart muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

-kompyuter savodxonligini shakllantirish;

-algoritmik ko'nikmalarni va muammolarni yechishda tizimli yondashuvlarni rivojlantirish;

-kompyuterning elementar ko'nikmalarini shakllantirish (kompyuter bilan tanishish, axborot texnologiyalari sohasidagi elementar tushunchalar bilan

-axborotlarni qayta ishlash, axborotni saqlash va axborotni uzatish sohasida kompyuterning imkoniyatlari haqida g'oyalarni shakllantirish.

-asosiy tushunchalar va ularning munosabatlari bilan tanishish,

maktab o'quvchilarida dunyoning axborot manzarasi, voqelik elementlari sifatida axborot va axborot jarayonlari haqida umumiy g'oyalarni shakllantirish;

-informatika fanining asosiy nazariy tushunchalari bilan tanishtirish;

-oddiy axborot ob'yektlarini: matnlar, chizmalar, har xil turdagi diagrammalar, shu jumladan kompyuterdan foydalangan holda ma'lumotlar yaratish va o'zgartirish tajribasiga ega bo'lish;

-matnlar, chizmalar, diagrammalar yaratish jarayonida dunyoning (dunyo qarashlarining) tizimli axborot tasvirini shakllantirish;

-o'quv jarayonida elektron qo'llanmalar, konstuksiya majmualari, simulyatorlar, taqdimotlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

-voqelik ob'yektlarini tasvirlash qobiliyati shakllanadi, ya'ni ular haqidagi ma'lumotlarni turli usullarda (raqamlar, matn, chizmalar, jadvallar shaklida) taqdim etish kabi vazifalar hal etilsa, belgilangan maqsadlarga erishish mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023 yil 15 maydagi 125-sonli buyrug'i.
2. O'zbekiston respublikasi vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori.
3. А. В. Горячев. А.А. Меньшакова. Преподавания информатики в начальной школе

(1-4-e klassy) na primere kursa « Informatika v igrax i zadaxax» Lekciya 1. Moskva.
Pedagogicheskii universitet «Perвое sentyabrya»2005 . str 4-6

